

ASOSIY KO'RSATKICHLAR

- Savdolarning umumiy hajmi 265,90 mlrd so'm (20,53 mln dollar)ni tashkil etib, 2024-yilning aprel oyiga nisbatan 37,46 mlrd so'mga yoki 16,4 foizga o'sdi.
- Shu bilan birga, 113,93 mlrd so'm (8,81 mln dollar) yoki bitimlar hajmining 42,85 foizi birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi. Savdo hajmning qolgan qismi listingdan tashqari savdo maydonchasi (LTSM) bitimlarga to'g'ri keldi.
- Birja savdo maydonchalaridagi bitimlarning umumiy soni 35 789 tani tashkil etib, bu o'tgan yilning aprel oyiga nisbatan 5 150 taga yoki 12,58% ga kam. Bunda, 29 182 ta bitim Birjaning birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan, 6 607 ta bitim esa listingdan tashqari savdo maydonchasida amalga oshirilgan.
- O'rtacha kunlik savdolar hajmi 12,09 mlrd so'm (933,37 ming dollar)ni, o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 1 627 tani tashkil etdi.
- Oy yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 0,09 foizga pasayib, 652,37 punktni tashkil etdi.

BOZOR SHARHI**AKSIYA BOZORI**

Aksiyalar bozorida savdolar hajmi 19,40 mlrd so'm (1,50 mln dollar)ni tashkil etdi. 2024-yilning aprel oyiga nisbatan savdolar hajmi 263,49 mln so'mga yoki 1,34% ga kamaygan. Shu o'rinda, savdolarning asosiy hajmi (10,60 mlrd so'm) Nego Board platformasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha kunlik savdolar hajmi 881,86 mln so'm (68 ming dollar)ni, o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 1 264 tani tashkil etdi.

Oy yakuniga ko'ra, aksiyalar bozorining kapitallashuvi 289,10 mlrd so'mga yoki 0,12 foizga o'sib, 242,58 trln so'm (18,76 mlrd dollar)ni tashkil etdi, erkin muomalada bo'lgan (free float) aksiyalarning bozor kapitallashuvi esa 3,96 trln so'mni tashkil etdi.

Oy oxirida Birjaning birja kotirovkalash varag'ida 94 ta emitentning aksiyalari mavjud edi.

Aksiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari

		4/2021	4/2022	4/2023	4/2024	4/2025
Savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	24 375	95 067	65 379	19 664	19 401
O'rtacha kunlik savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	1 108	4 527	3 632	983	882
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	<i>mln so'm</i>	4	13	2,9	0,6	0,7
Bitimlar soni	<i>dona</i>	5 679	7 429	22 257	35 956	27 797
O'rtacha kunlik bitimlar soni	<i>dona</i>	258	354	1 237	1 798	1 264

UCI INDEKSI

UCI indeksi oy davomida 0,09% foizga pasayib, 652,37 punkt darajasida yopildi.

2025-yil aprel oyidagi UCI indeksi grafigi



OBLIGATSIYALAR BOZORI

Korporativ obligatsiyalar bozorida savdolar hajmi 94,52 mlrd so'm (7,31 mln dollar)ni tashkil etib, 2024-yilning aprel oyiga nisbatan 93,20 mlrd so'mga yoki 71 barobarga oshdi.

O'rtacha kunlik savdo hajmi 4,3 mlrd so'mni, o'rtacha kunlik bitimlar soni 63 tani tashkil etdi

Oy yakuniga ko'ra, birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan obligatsiyalarning bozor qiymati 1,5 trln so'm (113,35 mln dollar)ni tashkil etdi.

Obligatsiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari

		4/2021	4/2022	4/2023	4/2024	4/2025
Savdo hajmi	mln so'm	50 343	40	64 826	1 329	94 524
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	2 288	2	3 601	66	4 297
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	mln so'm	3 356	40	1 852	11	68
Bitimlar soni	dona	15	1	35	118	1 385
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	1	0	2	6	63

LISTING

Oy oxirida birja kotirovkalash varag'ida 102 ta emitentning 153 ta instrumentlari mavjud edi.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI

Oy yakuniga ko'ra, Birjaning listingdan tashqari savdo maydonchasida 6 607 ta bitim tuzildi, bu o'tgan yilning aprel oyiga nisbatan 35,81% ga ko'p.

Umumiy hajm 151,97 mlrd so'm (11,72 mln dollar)ni tashkil etib, o'tgan yilning aprel oyiga nisbatan 26,74% ga kamaygan.

99 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bitimlar obyekti bo'ldi.